

Karimov Odiljon Ikramovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: odiljonikramov@mail.ru

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING FALSAFIY-AXLOQIIY MOHIYATI

Annotasiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish hodisasi inson va jamiyat o'rtasidagi yangi kommunikativ munosabat shakli sifatida falsafiy va axloqiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Internet va global axborot makonining kengayishi natijasida shaxs ongining shakllanish mexanizmlari, qadriyatlar tizimi va ma'naviy mezonlarning transformatsiyasi sodir bo'lmoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlar — nafaqat axborot almashish vositasi, balki ma'naviy ongning yangi shakli, ijtimoiy identifikatsiya makoni va axloqiy tanlov maydoni sifatida ko'rib chiqiladi.

Maqolada, shuningdek, jamiyatda sog'lom axloqiy muhitni shakllantirish, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, axborotdan oqilona va mas'uliyatli foydalanish zaruriyati axloq falsafasi, kommunikativ etika va raqamli antropologiya tamoyillari asosida asoslab beriladi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar faqat texnologik hodisa emas, balki axloqiy tanlov va ma'naviy o'zlikni namoyon etuvchi madaniy makondir.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, axborot falsafasi, virtual muloqot, virtual reallik, virtual obraz, ong va bilish, axloqiy mas'uliyat, raqamli madaniyat, kommunikativ etika, yoshlar ma'naviyati.

Каримов Одилжон Икрамович
Независимый исследователь Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова
E-mail: odiljonikramov@mail.ru

ФИЛОСОФСКО-ЭТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ИНФОРМАТИЗИРОВАННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье феномен использования социальных сетей анализируется с философской и этической точек зрения как новая

форма коммуникативных отношений между человеком и обществом. В результате расширения интернета и глобального информационного пространства происходит трансформация механизмов формирования сознания личности, системы ценностей и духовных критериев. Поэтому социальные сети рассматриваются не только как средство обмена информацией, но и как новая форма духовного сознания, пространство социальной идентификации и поле нравственного выбора. В статье также обосновывается необходимость формирования здоровой нравственной среды в обществе, укрепления духовного иммунитета молодежи, рационального и ответственного использования информации на основе принципов философии морали, коммуникативной этики и цифровой антропологии. Ведь социальные сети - это не только технологическое явление, но и культурное пространство, демонстрирующее нравственный выбор и духовную идентичность.

Ключевые слова: социальные сети, философия информации, виртуальное общение, виртуальная реальность, виртуальный образ, сознание и познание, моральная ответственность, цифровая культура, коммуникативная этика, духовность молодежи.

Karimov Odiljon Ikramovich
Independent researcher at Samarkand State University
named after Sharof Rashidov
E-mail: odiljonikramov@mail.ru

PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ESSENCE OF SOCIAL NETWORKS IN AN INFORMATION SOCIETY

Abstract. This article analyzes the phenomenon of social network usage from philosophical and ethical perspectives as a new form of communicative relationship between individuals and society. The expansion of the Internet and global information space has led to a transformation in the mechanisms of individual consciousness formation, value systems, and spiritual criteria. Consequently, social networks are examined not only as a means of information

exchange but also as a new form of spiritual consciousness, a space for social identification, and an arena for moral choices.

The article also substantiates the necessity of fostering a healthy moral environment in society, strengthening the spiritual immunity of youth, and promoting rational and responsible use of information based on the principles of moral philosophy, communicative ethics, and digital anthropology. Indeed, social networks are not merely a technological phenomenon, but also a cultural space that reflects moral choices and spiritual identity.

Keywords: social networks, philosophy of information, virtual communication, virtual reality, virtual image, consciousness and cognition, moral responsibility, digital culture, communicative ethics, youth spirituality.

Kirish (Introduction)

Virtual makon inson faoliyatining yangi ontologik fazosini yaratdi. Unda shaxs real dunyo bilan bir qatorda raqamli mavjudlik (virtual being) darajasida ham yashaydi. Bu esa insonni yangi axloqiy sinovlar, tanlovlar va mas'uliyat shakllariga duchor etadi. Shu bois, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida fuqarolarning axborotdan ongli va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish, ularni virtual tahdidlar va manipulyativ axborot oqimlaridan himoya qilish zarurati paydo bo'lmoqda.

Yurtimizda yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish masalasi zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining eng muhim falsafiy-axloqiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, axborot — bu nafaqat texnik yoki kommunikativ resurs, balki inson ongini shakllantiruvchi ijtimoiy-gnoseologik hodisa, ma'naviy qadriyatlar almashinuvi maydonidir. Shu nuqtayi nazardan, axborot madaniyatining rivoji jamiyatning ma'naviy immunitetini, tafakkur mustaqilligini va axloqiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. "Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi, kompyuter savodxonligi,

media savodxonligi, kommunikativ savodxonlik, texnologik innovasiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa sanaladi” [1;191-192]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda axborotning ontologik maqomi — uning “borliqdagi mavjudlik shakli” sifatida tahlil qilinishi bilan bir qatorda, axborot etikasi, kommunikativ huquq falsafasi, ma’lumotning insoniy qadri kabi tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o’rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, axborotni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, bir tomondan, inson erkinligini kengaytirsam, ikkinchi tomondan, axloqiy nazorat va huquqiy me’yorlar tizimini qayta ko’rib chiqishni talab etadi.

Insoniyat globallashtirish, axborotlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tuzilmalardan iborat bo’lgan postindustrial sivilizatsiya dunyosiga kirib keldi. Bu sivilizatsiya o’tgan asrda jamlangan barcha kreativ potentsiallarni ishga solib, ma’lum jihatdan inqilobiy bo’lgan postnoklassik madaniyat, fan va texnologiyaga asoslangan innovatsion olamni bunyod etmoqda. “Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasining postindustrial mamlakatlar hamjamiyatiga aylanib borishi, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish va turli madaniyatlararo muloqotning globallashtirish inson hayoti, ilm-fan va tafakkur tarzi jabhalarida jiddiy o’zgarishlarga olib keldi”[2;7]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki inson tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy mas’uliyatining yangi shaklini belgilovchi omil sifatida o’rganilmoqda. Xususan, italiyalik olim Luciano Floridi, nemis olimi Yu. Xabermas, amerikalik olim Sheri Turkl va D. Boyd kabi olimlarning tadqiqotlari, o’zbekistonlik olimlardan M.Quronov, M.Qirg’izboyev, T.Alimardonov, A.Muxtarov, A.O’tamurodov, N.Kodirov, M.N. Normamatova

G.S. Sultanova, Y.Z.Ro’ziyev, B.S. Abdullayevalarning tadqiqotlarida zamonaviy jamiyatni axborotlashtirishning strategik xususiyatlari, axborot madaniyatining shakllanishi, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’siri, axborot

madaniyati va ma'naviy xavfsizlik masalalari yoritilgan bo'lsa-da, ularning falsafiy-axloqiy talqini hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Maqolada dialektik bilish tamoyillari, sistemali yondashuv, analitik-sintetik, mantiqiy-tarixiy, komparativ (taqqoslovchi) va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy tarmoqlarning axborotlashgan jamiyatdagi rolini ontologik, aksiologik va axloqiy mezonlar asosida tahlil qilishga, insonning virtual makondagi mavjudligini falsafiy jihatdan anglashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Insoniyat bugungi kunda globallashtirish, axborotlashuv va kompyuterlashtirish jarayonlari negizida shakllangan postindustrial sivilizatsiya bosqichiga qadam qo'ydi. Bu sivilizatsiya insoniyat tarixining yangi sifat bosqichini ifodalaydi — unda ishlab chiqarish vositasi sifatida moddiy resurslar emas, balki bilim, tafakkur va innovatsion salohiyat asosiy omilga aylanmoqda.

Postindustrial davrda insoniyat o'tgan asrlarda to'plangan barcha intellektual va ijodiy imkoniyatlarini safarbar etgan holda, postnoklassik tafakkurga asoslangan yangi madaniy-falsafiy paradigma sari yuz tutdi. Bu paradigma fan va texnologiyani faqat amaliy kuch sifatida emas, balki madaniyat va ongning o'zini qayta tashkil etuvchi metafizik jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur bosqichda axborot, bilim va innovatsiya jamiyat hayotining markaziy qadriyatlariga aylanmoqda. Natijada inson faqat ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi emas, balki axborot oqimlari, raqamli kodlar va ma'naviy ma'nolarni boshqaruvchi mavjudot sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, postindustrial sivilizatsiya — bu insonning o'z ijodiy mohiyatini texnologik mavjudlik orqali ro'yobga chiqarish shaklidir. Tadqiqotchi N.Kodirov ta'kidlaganidek, "Hozirda xalqaro munosabatlar integratsiyasi jahon hamjamiyati tomonidan insoniyatning axborot madaniyati globallashtirish yutuqlarini saqlab qolishning asosiy imkoniyati sifatida e'tirof etilmoqda. Darhaqiqat, globallashtirish tufayli "ommaviy madaniyat" tahdidining oldini olishga qaratilgan mafkuraviy usullar, ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar, texnologik asoslar, intellektual salohiyat, axborot bazasi, xalqaro institutsional

tizimni rivojlantirish davr talabiga aylandi. Bu global ma'naviy inqiroz muammolarini hal qilishda har tomonlama va tizimli yondashishni, alohida davlatlarning utilitar-merkantil milliy egositik etnoegotsentrik manfaatlarining mutlaqlashuvi fonida xalqaro institutsionaltizim, huquqiy makon yaratishni taqozo yetadi" [3;20-21].

Postindustrial jamiyat, informatizasiya, globalizasiya jarayonlari foydani o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy hamda sinfiy qiyofasini yo'qotgan, o'z maqsadlari yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor turgan shaxslarni yaratdi. Bunday salbiy holatlar vatanimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Buning uchun kurashish, zarur bo'lsa barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida yozadilarki, "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimay tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin" [4;115] . Bundan kelib chiqib, hozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega, shunday ekan endigina ongi, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodni ma'naviy olami daxlsizligini asrash muammo bo'lib ko'pchilikni o'ylantirayotir.

Yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga quyilayotganligi, ayni shu axborot xurujlariga qarshi yetarli immunitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli insonlarni maydonga chiqarish, zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy funksiyasi ekanligi olimlarimiz tamonidan asoslab bermoqda. Jadidchilarimizdan Abrurauf Fitrat "Oila" risolasida axloq-odobda namunali avlodni tarbiyalash nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanligini zikr etib, "Bolani shunday tarbiyalash lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin.Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki axloqga zid bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishlarini qo'llab quvvatlashi kerak..... Kim badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga katta

dushmanlik qilgan bo‘ladi” [5;5],-degan edi. Mutafakkir bu nuqtada ota-ona yoki murabbiyning tarbiya jarayonidagi rolini faqat shaxsiy burch yoki oila doirasidagi vazifa sifatida emas, balki butun jamiyat oldidagi muhim ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyat sifatida talqin etadi. Zero, inson tarbiyasi nafaqat shaxs taqdiri, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi va ma’rifiy yuksalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, har bir tarbiya akti – ota-onaning farzandiga bo‘lgan munosabati, murabbiyning shogirdiga singdirayotgan ma’naviy qimmatlari – keng jamiyat hayotiga ta’sir etuvchi ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday yondashuv tarbiyani faqat shaxsiy ehtiyoj yoki oilaviy muhit bilan cheklamaydi, balki uni jamiyatning ma’naviy poydevori, ma’rifat va axloq tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘radi. Shu tariqa, mutafakkirning fikricha, ota-ona va murabbiyning har bir harakati, so‘zi va namunasi kelajak avlodning dunyoqarashi va jamiyatning ma’naviy yuzini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Media texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi insonlarga o‘z fikrlarini bildirish uchun imkoniyat yaratadi, shu bilan birga internetdagi jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatadi. Media mahsulotlarning ba’zilari yoshlar dunyoqarashiga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun barcha sohaga mas’ullar va targ‘ibot markazlari jamoatchilik fikrini boshqarish bo‘yicha faol ish olib borishi va jamoatchilik fikrining ijobiy muhitini yaratishlari lozim. Shuningdek, “raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish” [6] ham muhim vazifa hisoblanadi. Biroq, mediamahsulotlarning ayrimlari jamiyatning axloqiy va ma’naviy qadriyatlariga mos kelmasligi, ayniqsa, yosh avlod ongida turli g‘oyaviy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu boisdan, axborot maydonidagi barqarorlikni ta'minlash, jamoatchilik fikrini ijobiy yo'naltirish va ma'naviy immunitetni kuchaytirish – bugungi kunda nafaqat siyosiy yoki mafkuraviy vazifa, balki falsafiy ahamiyatga ega umuminsoniy burchdir.

Zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi falsafiy va axloqiy o'lchamlarini shakllantirmoqda. Ular nafaqat axborot almashish vositasi, balki inson tafakkuri, qadriyatlari va ruhiy dunyosini ifoda etuvchi ijtimoiy-madaniy makonga aylandi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarni faqat texnik platforma sifatida emas, balki inson mavjudligining ma'naviy va axloqiy mazmunini ochib beruvchi murakkab fenomen sifatida tadqiq etish lozim.

Virtual olamda inson ko'pincha o'zining "ikkinchi men"ini yaratadi. Bu esa, klassik falsafada mavjud bo'lgan "haqiqiy men" va "xayoliy men" o'rtasidagi dialektik ziddiyatni yanada kuchaytiradi. Shunday qilib, virtual reallik texnologik hodisadan tashqari, inson o'zligini qayta yaratish, borliqni o'z tasavvuriga muvofiq modellashtirish jarayoniga aylanadi. Bu jarayonda inson mashina bilan emas, balki o'zining sun'iy ongini yaratish orqali o'z mohiyatini sinovdan o'tkazadi. Tadqiqotchi M. Normamatova ta'kidlaganidek; "XX asrni ikkinchi yarmida bir-biridan mustaqil ravishda fan va texnikaning bir nechta sohalarida virtuallik g'oyasi vujudga keldi. Virtual obektlardan tashkil topgan virtuallik olamiga kirish va uni tadqiq qilish boshlandi. Fizikada virtual zarrachalar, metereologiyada virtual harorat, ergonomikada virtual holat, psixologiyada virtual qobiliyat, san'atshunoslikda virtual teatr, antropologiyada virtual inson, kompyuter texnologiyasida kompyuterli virtual reallik va boshqa tushunchalarni ishlab chiqish virtualistik bilish obyekti ustida epistemologik refleksiyani amalga oshirish imkoniyatini bermoqda" [7;13].

Virtual reallikni internet texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Internet esa zamonaviy insonning ma'naviy va ijtimoiy mavjudligini belgilovchi "yangi makon" sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois kim internetni faqat axborot manbai sifatida emas, balki ma'naviy-ijtimoiy muhit sifatida anglamasa, u virtual

dunyoning asl falsafasini tushunolmaydi. Axborotlashgan jamiyatda virtual reallik fenomenining liberal-tolerant, utilitar-pozitiv va rational-konstruktiv jihatlarini anglab olish yosh avlodning axborot madaniyatini yuksaltirishda muhim falsafiy bosqichdir. Chunki bu jarayon insonning yangi ma'naviy shaklga moslashuvini emas, balki o'z ongi va qadriyatlarini ongli tarzda boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Insonning axborot texnologiyalariga moslashuvi passiv hodisa emas — bu uning ongli ravishda yangi borliqda o'zini anglash jarayonidir. Axborot muhitiga faol munosabat, tanqidiy fikrlash va axloqiy mas'uliyat insonni “virtual tarmoq subyekti” emas, balki “axborot makoni ijodkori”ga aylantiradi.

Globallashuv sharoitida axborotlashgan jamiyat faqat ijtimoiy tizim emas, balki insonning yangi ma'naviy o'zlik bosqichidir. Insonning axborot olishga bo'lgan ehtiyoji endilikda bilim orttirish vositasi emas, balki borliqni bilish, o'zligini anglash va ma'naviy kamolga yetishning muhim shakliga aylanmoqda. Shu ma'noda, axborot madaniyati — bu insonning axborot olamida yashash falsafasidir.

Inson o'z fikrini tarmoqqa joylashtirar ekan, aslida u jamoaviy ong bilan muloqotga kirishadi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar shaxs va jamoat ongi o'rtasidagi murakkab dialektik aloqaning yangi shaklini yaratadi. “Bugun dunyo aholisining 90 % dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni hamyildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek. Inson bu 3 soat mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nima notabiylik bor deb o'ylash mumkin” [8;127]

Axloqiy jihatdan esa, ijtimoiy tarmoqlar ikki qirrali hodisadir. Bir tomondan, ular insonlarga fikr erkinligi, ijtimoiy adolat va haqiqatni izlash imkonini beradi; ikkinchi tomondan esa, bu erkinlik mas'uliyatsizlik, manipulyatsiya va yolg'on axborot tarqatish xavfini ham tug'diradi. Shu sababli axborot muhitida insonning

ma'naviy immuniteti, axborot madaniyati va axloqiy mas'uliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Falsafiy jihatdan olganda, ijtimoiy tarmoqlar insoniyatning o'z-o'zini bilish bosqichida yangi "virtual borliq"ni vujudga keltirdi. Bu borliqda inson o'zining ikki qirrali mavjudligini — real va **virtual "Men"**ini — boshdan kechiradi. Natijada, axloqiy mezonlar ham transformatsiyaga uchraydi: rost va yolg'on, ezgulik va yovuzlik, shaxsiy va jamoaviy manfaatlar o'rtasidagi chegaralar nisbiy tus oladi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarning falsafiy mohiyatini anglash — bu insoniyatning yangi ontologik muhitdagi o'zlik izlanishlarini tahlil qilish demakdir.

Axloqiy nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyat tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Chunki har bir "layk", "izoh" yoki "post" insonning ijtimoiy mavjudligidagi axloqiy tanlovidir. Shu tanlovlar jamiyatda jamoatchilik fikrini shakllantirib, axloqiy muhitga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ma'naviy ong, tanqidiy tafakkur va mas'uliyat hissini kuchaytirish – bugungi zamon axloq falsafasining asosiy talablaridan biridir.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarning falsafiy-axloqiy mohiyatini anglash — bu texnologik taraqqiyotga berilgan javob emas, balki insoniyatning o'z axloqiy mavjudligini saqlab qolish, borliqdagi o'rmini qayta anglash va ruhiy yetuklik sari intilish jarayonidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni axborot tahdidlaridan asrash masalasi — bu faqat texnik xavfsizlik yoki tashkiliy boshqaruv tizimiga oid muammo emas, balki insoniyat tafakkurining yangi shaklini anglash bilan bog'liq falsafiy-axloqiy jarayondir. Chunki axborot makoni — bu inson ongi va ijtimoiy mavjudligining yangi bosqichda namoyon bo'lish shaklidir. Unda insonning tafakkuri raqamli tasvirlarda, algoritmik ifodalarda va virtual aloqalarda o'z aksini topadi.

Bu esa, insonning an'anaviy ma'naviy qadriyatlari bilan raqamli borliq qonuniyatlari o'rtasida yangi falsafiy dialektikani yuzaga keltiradi. Ya'ni inson endilikda faqat axborot iste'molchisi emas, balki axborot orqali o'zligini yaratadigan mavjudotga aylanmoqda. Shu bois yoshlarning internet savodxonligini

o'shish, ularning virtual olamdagi qiziqishlarini tizimli o'rganish va ijtimoiy ong monitoringini yo'lga qo'yish — bu nafaqat tarbiyaviy chora, balki insonni yangi axborot borlig'iga ma'naviy-ontologik tayyorlash jarayonidir.

Axborotlashgan jamiyatda inson o'z tafakkurini raqamli makonda aks ettirar ekan, u o'zining mavjudlik mohiyatini yangicha anglay boshlaydi. U o'zini nafaqat biologik va ijtimoiy mavjudot, balki axborot mavjudot sifatida ham his etadi. Shu jarayonda inson ongida “sun'iy haqiqat” tushunchasi shakllanadi — bu esa borliq va illuziya, haqiqat va simulyatsiya o'rtasidagi chegaralarni noaniq qiladi. Shu bois axborot davrining eng muhim falsafiy vazifasi — texnologiyani o'zlashtirish emas, balki texnologik taraqqiyot sharoitida insoniylik mohiyatini asrab qolishdir.

Demak, axborot asrida insoniyatning bosh vazifasi — raqamli imkoniyatlar vositasida borliqni o'zgartirish emas, balki axborot muhitida o'z ma'naviy mohiyatini saqlab qolishdir. Insonni “axborot mavjudot” emas, balki “ma'naviy mavjudot” sifatida anglash, demakki, uni texnologik muhitda ham axloqiy, mas'uliyatli va ongli subyekt sifatida tarbiyalash — zamonaviy falsafa oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 191-192.
2. Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzida g'oyaviy vorislik va innovatsiya muammolari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018.-B.7.
3. Kodirov N.O'zbekiston yoshlarida axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand, 2021. – B.20-21.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. –В.115.
5. Абдурауф Фитрат.Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият,2000. –Б.5. (112)

6. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi // <https://lex.uz/docs/-5030957#-5031883>
7. Normamatova M.N. Virtualistikada postnoklassik epistemologiya g‘oyalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2018. –B.13.
8. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O‘zbekiston, 2024. –B.127.